

**ABUL MAOLIY MUHAMMAD IBN
UBAYDULLOHNING “BAYONUL
ADYON” ASARI – SHARQ QIYOSIY
DINSHUNOSLIGI MANBASI SIFATIDA**

**ABU’L-MA’ALI MUHAMMAD IBN
UBAYDULLAH’S “BAYAN AL-ADYAN”:
A SOURCE ANALYSIS IN EASTERN
COMPARATIVE RELIGION**

**«БАЯНУЛ-АДЬАН» АБУЛЬ-МАОЛИЙ
МУХАММАДА ИБН УБАЙДУЛЛАХА
КАК ИСТОЧНИК ВОСТОЧНОГО
СРАВНИТЕЛЬНОГО РЕЛИГИОВЕДЕНИЯ**

ABDUPATTAEV Mumin Mirzo
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN
PhD, Senior lecturer of the UNESCO Chair in
Comparative Study of World Religions
E-mail: mirzo21@umail.uz
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan

DOI: 10.47980/IIAU/2026/2/6

Annotatsiya: Mazkur maqola XI asrda Xurosonda yashagan olim Abul Maoliy Muhammad ibn Ubaydulloh Husayniy Alaviyning fors tilidagi ilk qiyosiy dinshunoslik asari hisoblangan «Bayonul adyon» tahliliga bag‘ishlangan.

Muallif Abul Maoliy Muhammad ibn Ubaydullohning hayoti haqida manbalarda ma’lumotlar cheklangan bo‘lsa-da, asarning mazmuni va unda keltirilgan ayrim ma’lumotlar olimning G‘aznaviylar saroyiga yaqin, jamiyatda yuksak mavqega ega va chuqur ratsionalistik tafakkurli olim bo‘lganini ko‘rsatadi. Asarda muallifning turli din va firqalarni xolis tahlil qilishi, ayniqsa, “73 firqa” hadisi asosida islomdagi guruhlarini tasniflash uslubi ko‘rib chiqilgan. Maqolada Abul Maoliyning o‘zi sunniy-hanafiy an‘anasiga mansubligi asardagi fihiy va aqidaviy ishoralar orqali dalillangan.

Maqolada asarning qo‘lyozma nusxalari taqdiri, xususan, eronlik mashhur muarrix Abbos Iqbol Ashtiyoniy tomonidan amalga oshirilgan ilk tanqidiy nashr va keyinchalik Muhammad Taqiy Donishpajuh tomonidan asarning to‘liq nusxasi topilishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar ham batafsil bayon etilgan. «Bayonul adyon» asari umumiy besh bobdan iborat bo‘lib, u nafaqat diniy ta’limotlar, balki XI asr musulmon dunyosining geografik va antropologik tasavvurlarini ham o‘zida aks ettiradi. Ayniqsa, muallifning turli xalqlar, jumladan, islomdan avvalgi turklar va hindlarning iloh haqidagi tasavvurlari borasidagi kuzatuvlari diqqatga sazovordir. Asar fors tilining eng go‘zal va nodir namunalaridan biri sifatida islom mazhablari tarixi (maqolot) an‘anasida o‘chmas iz qoldirgan.

Shuningdek, “Bayonul adyon” asarining manbalari sifatida Abu Zayd Maqdisiy, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad ibn Horun Varroq va Abul Hasan Muhammad ibn Yusuf Amiriy Nishopuriy kabi mutafakkirlarning asarlari ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot yakunida asarning besh bobdan iborat tarkibi, undagi islomdan oldingi dinlar (zardushtiylik, yahudiylik, nasroniylik) hamda g‘ayriilmiy da’volar bilan chiqqan soxta payg‘ambarlar haqidagi ma’lumotlarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Abul-Maoliy Muhammad, «Bayonul adyon», manbashunoslik, qiyosiy dinshunoslik, firqalar tarixi, G‘aznaviylar davri, 73 firqa hadisi, Abbos Iqbol, Xuroson ilmiy muhiti, mazhablar tasnifi.

Abstract: This article is devoted to the analysis of Bayan al-Adyan, the first comparative study of religions written in the Persian language by the 11th-century scholar Abul-Ma’ali Muhammad ibn Ubaydullah Husayni Alawi, who lived in Khorasan. Although information about the author’s life is limited in the sources, the content of the work and certain data presented in it indicate that the scholar was close to the Ghaznavid court, held a high position in society, and possessed a profound rationalist mode of thought. The article examines the author’s impartial exposition of various religions and sects, and in particular his methodology for classifying Islamic currents on the basis of the hadith of the «73 sects (fiqas).» Drawing on the juridical (fiqh) and doctrinal indications contained in the work, the article substantiates Abu al-Ma’ali’s own affiliation with the Sunni-Hanafi tradition.

The article also sets out in detail the historical circumstances connected with the fate of the work’s manuscript copies, in particular the first critical edition prepared by the renowned Iranian historian Abbas Iqbal Ashtiyani, and the subsequent discovery of a complete copy of the work by Muhammad Taqi Danesh-Pazhuh. The work «Bayan al-Adyan» consists of five chapters in total and reflects not only religious teachings but also the geographical and anthropological conceptions of the eleventh-century Muslim world. Of particular note are the author’s observations concerning the conceptions of the deity held by various peoples, including the pre-Islamic Turks and the Indians. As one of the most beautiful and rare specimens of the Persian language, the work has left an indelible mark on the tradition of the history of Islamic schools of thought (maqalat).

Among the sources of «Bayan al-Adyan» are cited the works of such thinkers as Abu Zayd al-Maqdisi, Abu Rayhan al-Biruni, Muhammad ibn Harun al-Warraq, and Abu al-Hasan Muhammad ibn Yusuf al-Amiri al-Nishapuri. In conclusion, the study reveals the structure of the work, consisting of five chapters, as well as the significance of the information it contains on pre-Islamic religions (Zoroastrianism, Judaism, Christianity) and on the false prophets who came forward with unscientific claims.

Keywords: Abu al-Ma’ali Muhammad, «Bayan al-Adyan», source studies, comparative religious studies, history of sects (fiqas), Ghaznavid era, hadith of the 73 sects, Abbas Iqbal, the scholarly milieu of Khurasan, classification of religious-juridical schools.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу труда «Баян аль-адьян» – первого сочинения по сравнительному религиоведению на персидском языке, написанного в XI веке ученым из Хорасана Абуль-Маали Мухаммадом ибн Ubaydullohom Хусайни Алави. Несмотря на то что сведения о жизни автора в источниках ограничены, содержание сочинения и приводимые в нем отдельные данные свидетельствуют о том, что ученый был приближен к двору Газневидов, занимал высокое положение в обществе и обладал глубоким рационалистическим мышлением. В работе рассмотрено беспристрастное изложение автором различных религий и сект, в особенности его методика классификации исламских течений на основе хадиса о «73 общинах (фирках)». В статье на основе правовых и вероучительных указаний, содержащихся в сочинении, обосновывается принадлежность самого Абу-ль-Маали к суннитско-ханафитской традиции.

В статье также подробно изложены исторические обстоятельства, связанные с судьбой рукописных копий сочинения, в частности с первым критическим изданием, осуществленным известным иранским историком Аббасом Икбалом Ашитяни, и последующим обнаружением полной копии труда Мухаммадом Таги Данеш-Пажухом. Сочинение «Баян-адьян» состоит в общей сложности из пяти глав и отражает не только религиозные учения, но и географические и антропологические представления мусульманского мира XI века. Особого внимания заслуживают наблюдения автора относительно представлений о божестве у различных народов, в том числе у доисламских тюрок и индийцев. Как один из прекраснейших и редчайших образцов персидского языка, сочинение оставило неизгладимый след в традиции истории исламских направлений (макалат).

В качестве источников «Баян-адьян» указаны труды таких мыслителей, как Абу Зайд аль-Макдиси, Абу Райхан аль-Беруни, Мухаммад ибн Харун аль-Варрак и Абу-ль-Хасан Мухаммад ибн Юсуф аль-Амири ан-Нишапури. В заключении исследования раскрыты структура сочинения, состоящего из пяти глав, а также значимость содержащихся в нем сведений о доисламских религиях (зороастризме, иудаизме, христианстве) и о лжепророках, выступавших с ненаучными притязаниями.

Ключевые слова: Абу-ль-Маали Мухаммад, «Баян-адьян», источниковедение, сравнительное религиоведение, история сект (фирак), эпоха Газневидов, хадис о 73 общинах, Аббас Икбал, научная среда Хорасана, классификация религиозно-правовых направлений.

KIRISH

Islom tarixining ilk davrlarida fors tilida ikkita «Maqolot» janrida mashhur asar yozilgan. Ulardan biri XI asrda yashagan Abul-Maoliy Muhammad ibn Ubaydulloh Husayniy Alaviy tomonidan yozilgan «Bayonul adyon dar sharhi adyon va mazohibi johiliy

va islomiy», ikkinchisi esa XIII asrda yashagan Sayyid Murtazo ibn Hasaniy Roziyga nisbat beriladigan «Tabsifatul-avom fi ma'rifati maqolotil-anom» nomli asardir.

«Bayonul adyon dar sharhi adyon va mazohibi johiliy va islomiy» nomli asar Eronning sharqiy qismida – Xuroson hududida 485/1092-yilda ta'lif etilgan bo'lib, u dinlar va mazhablar haqida bizga ma'lum bo'lgan fors tilida yozilgan eng qadimgi Islom mazhablari tarixi haqidagi kitob hisoblanadi. Mazkur kitobni eronlik mashhur adabiyotshunos, tarixchi va yozuvchi Abbos Iqbol Ashtiyoniy (vaf. 1956) 1934-yilda Tehron shahrida nashr ettirgan.

Aslida Abbos Iqbol ushbu nusxani Parij Sharq tillari maktabi direktori, sharqshunos Sharl Sheferning 1883-yilda «Chrestomathie Persane» (Forscha majmua) nomi bilan fransuzcha tarjima asosida nashr ettirgan asari tarkibida ko'rgan. Parij Milliy kutubxonasiga tegishli bir to'plam tarkibida bo'lgan bu asar besh bobdan iborat bo'lsa-da, Shefer nashr qilgan kitobda beshinchi bob mavjud emas edi. Ashtiyoniy o'sha paytda asarning boshqa nusxasini topa olmaganini sababli, Shefer nashrini asos qilib olgan va zaruriy lingvistik tuzatishlarni kiritib, asarni nashr ettirgan.

Abbos Iqbolning ushbu nashri bilan bog'liq holda, Ahmad Kasraviy (vaf. 1946) «Paymon» jurnalida (1935/2-3 va 1935/4) ayniqsa arabcha matnlarni o'qishdagi xatolar yuzasidan uchta tanqidiy maqola yozgan. Keyinchalik kitobning yo'qolgan beshinchi bo'limini Muhammad Taqiy Donishpajuh Asg'ar Mahdaviy kutubxonasida 482-raqam bilan ro'yxatga olingan bir to'plam ichidan topib, 1962-yili «Farhang-i Iron Zamin» jurnalining o'ninchi jildida (282-318-betlar) nashr ettirgan. Keyingi yillarda Donishpajuh «Bayonul-adyon»ning to'liq nusxasini Qumdagi Oyatulloh Mar'ashiy Najafiy kutubxonasidan (9286-raqamli qo'lyozma) topishga muvaffaq bo'lgan.

USULLAR

Abul Maoliy Muhammad ibn Ubaydulloh ilmiy merosi va uning shoh asari “Bayonul adyon”ni o'rganishda qiyosiy-tarixiy, tipologik, germenetivik hamda deduksion tahlil etish kabi usullaridan foydalanildi.

NATIJA

Afsuski, «Bayonul-adyon» kitobining muallifi Abul Maoliyning hayoti haqida qo'limizda yetarli ma'lumotlar mavjud emas. Biografik manbalarda (tazkiralarda) ismi uchramaydigan ushbu shaxs haqidagi

ma'lumotlarimiz, faqatgina uning yuqorida nomi zikr etilgan asarida o'zi haqida aytganlari bilan cheklanadi. Unga ko'ra, muallif Xuroson hududidan bo'lib, mazkur asarini 485/1092-yilda ta'lif etgan.

Muallifimiz asarning muqaddimasida ismi va kunyasini quyidagicha keltirgan: «Amir Sayyid Ajall Imom Olim Abul-Maoliy Muhammad b. Ubaydulloh b. Ali al-Hasan ibn Husayn ibn Ja'far ibn Ubaydulloh ibn Husayn ibn Ali ibn Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib (Alloh ulardan rozi bo'lsin va O'z rahmati bilan yorlaqasin)» (Abul-Maoliy, 1312/1934., pp. 15-16).

Abbos Iqbol Abul Maoliyning bu yerda keltirilgan shajarasidan kelib chiqib, uning to'rtinchi avlod bobosi Jafar o'z farzandlari Hasan va Husayn bilan birgalikda, ehtimol, Mutavakkil (847–861) xalifaligi davrida hijrat qilib Balxga kelganliklarini va u yerda «Balx naqibi» (Balx sayyidlarining rahbari) maqomiga noil bo'lganliklarini ta'kidlaydi (Abul-Maoliy, 1312/1934., p. 8).

To'rtinchi avlod bobosining Balxga ko'chib kelishi bilan sulolasi ushbu yerga o'rnashgan Abul Maoliyning ikkinchi avlod bobosi Abu Muhammad Hasan ibn Husayn Balxning hurmatli va ulug' zotlaridan biri sifatida tanilgan edi (Masse., 1986, p. 137). Muallifimizning bobosi Abul Qosim Ali ibn Abu Muhammad Balxda, uning o'g'li – ya'ni muallifning otasi bo'lmish Ubaydulloh b. Ali esa Hirotda yashagan (Abul-Maoliy, 1312/1934., p. 9). Abbos Iqbolning fikricha, muallif muqaddimada o'z ismidan avval qo'llagan «Amir Sayyid Ajall Imom» unvonlari, uning ham xuddi ajdodlari kabi jamiyatda yuksak mavqega ega bo'lganidan, amirlik yoki naqiblik vazifalarida xizmat qilganidan dalolat beradi (Abul-Maoliy, 1312/1934., p. 9). Abul Maoliyning asarning ikki o'rnida (34 va 57-betlar) o'z kuzatuvlariga tayanib G'azna haqida so'z yuritishi, uning u yerda istiqomat qilganidan dalolat berishi mumkin.

Asarning kirish qismidayoq muallifning ratsional va izchil ilmiy shaxsiyatga ega ekanligi, uning «aql qonunlariga muvofiq» (Abul-Maoliy, 1312/1934., p. 17) harakat qilishga bergan urg'usidan anglashiladi. O'z asarining bo'limlari haqida ma'lumot bergandan so'ng¹, kitobdagi ma'lumotlarni o'zidan to'qib chiqarmaganini, balki ularni yo «ustozlar va imomlardan olgan saboqlari, yo chuqur mutolaalari yoki ma'lum va mashhur kitoblardan olganini» (Abul-Maoliy, 1312/1934., p. 17) ta'kidlab, ilmiy omonatga bo'lgan hurmatini izhor etgan.

¹ Aslida, Abul Maoliy kabi Imom Shahristoniyning ham (vaf. 1153) «al-Milal va-n-nihal» asarida xuddi shunday tarzda aql tamoyillariga to'xtalib o'tishi, asarining bo'limlari va ushbu bo'limlarni nimalarga asoslanib shakllantirganini bayon qilishi – XI va XII asrlarda islomiy tafakkur ilmiy jihatdan qanchalik yuksak darajada bo'lganligining yorqin dalilidir.

Firqalarni nisbatan xolis uslubda tahlil qilgan Abul Maoliyning mazhabi xususida ba'zi tadqiqotchilar uni sunniy-hanafiy deb hisoblaganlar, asarini esa hanafiy «Maqolot» an'anasining namunasi sifatida baholaganlar (Kutlu., 2008, p. 187).

Bizning fikrimizcha ham, muallif katta ehtimol bilan sunniy hisoblanadi, biroq uning hanafiy fikr maktabiga mansubligini aytish uchun qo'limizda yetarli ma'lumotlar mavjud emas. Balki uning hanafiy bo'lganligiga doir yagona aniq misol – kitobida ahli islomning o'rta yo'li vakili sifatida ko'rgan sunnat va jamoat as'hobi haqida so'z yuritganda, nomi zikr etilgan imomlar ichidan faqat Abu Hanifa uchun «roziyallohu anhu» shaklida duo iborasini qo'llaganidir (Abul-Maoliy, 1312/1934., p. 47). Biroq shunday ko'rinadiki, Abul Maoliyning hanafiy mazhabiga mansub deb hisoblaydigan tadqiqotchilarning asosiy dalili – uning sunniy-hanafiy yo'nalishidagi G'aznaviylar davrida (963–1186) Xurosonda yashaganligidir.

Aslini olganda, Abul Maoliyning G'aznaviylar davrida saroyga yaqin mavqeda bo'lganligi uning sunniyligini aniqlashni osonlashtiradi. Bundan tashqari, uning «Bayonul-adyon» asari mazmuni ham buni tasdiqlaydi. Masalan, Abul Maoliyning najot topuvchi firqa (firqai nojiya) sifatida ahli sunnani ko'rishi va kitob davomida to'rt xalifaning barchasini xayrli duo va rahmat bilan yodga olishi, uning sunniy ekanligidan dalolat beradi. Muallifning ahli sunna haqida so'z yuritilgan to'rtinchi bo'limdagi quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir:

“Aytamizki, islom ahlining o'rta yo'li – sunnat va jamoat as'hobidir. Musulmonlardan qaysi bir mazhabga mansub bo'lmasin, kimdan so'rasangiz, har biri: “Sunnat va jamoat as'hobi – bu men mansub bo'lgan mazhab”, deb javob beradi. Ushbu mazhab tayangan asosiy tamoyillar quyidagilardir: ular Alloh taoloning barcha sifatlarini qadimiy deb qabul qiladilar; Qur'onning g'ayri-maxluq (yaratilmagan), jannat va do'zaxning yaratilgani va hozirda mavjud ekanligini; jannat ahlari Alloh taoloni, shubhasiz, ko'z bilan ko'rishlarini; qabr azobi hamda Munkar va Nakirning so'rog'i haq ekanini aytadilar. Ular gunohi kabira qilgan qullarni kofir demaydilar; tavba qilmasdan vafot etganlarning gunohlari miqdoricha do'zaxda qolishlarini, so'ngra Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning shifoatlari bilan jannatga kirishlarini aytadilar... Ular Alloh taoloning sifatleri xususida tashbeh (Allohni yaratilganlarga o'xshatish) va ta'tildan (Alloh sifatlarini inkor etish) yiroq bo'ladilar. Payg'ambarimiz as'hoblari haqida yomon so'z aytmaydilar. Rasulullohning xalifasi Abu Bakr Siddiq (r.a.) ekanini aytadilar va uni sahobalarning eng afzali deb biladilar. Undan keyin Umar ibn Xattob (r.a.), undan keyin Usmon ibn Affon (r.a.) va undan so'ng esa

Ali ibn Abu Tolibni (k.v.) xalifa sifatida qabul qiladilar. Ularning sevgisi ko'ngilda barobardir. Sunnat va jamoat mazhabining asosiy g'oyalari shulardan iboratdir" (Abul-Maoliy, 1312/1934., pp. 45-46).

Asarning muqaddimasida dunyoning foni ekanligi, har bir narsaning o'tkinchiligi, Hazrati Odamdan buyon barcha hukmdorlar kelib-ketgani va hammasi unutilgani, faqatgina go'zal so'z qoldirgan va ezgu ishlar qilganlarga bo'y ko'rsatishi haqida so'z yuritadi. Bu o'rinda u Hazrati Ibrohimni misol keltirib, har kuni besh mahal namozda unga «salovat» duolari o'qilishini ta'kidlaydi (Abul-Maoliy, 1312/1934., p. 16), bu esa muallifning sunniy fiqh maktablaridan biriga mansubligidan dalolat beradi. Zero, ja'fariy fiqhida tashahhuddan so'ng «salovat» duolari o'qilmaydi (Humeyniy., 1365, p. 149).

Shuningdek, muallif asarning muqaddimasida ushbu asarni tasnif etish (yozish) sabablari sifatida keltirib o'tgan jihatlari ham uning sunniy bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi. Avvalo, mavzuga doir tegishli qismni keltirib o'tamiz:

“Ushbu asarni tasnif etishdan ko'zlangan maqsadimizga kelsak, hukmdor majlislaridan birida so'z aylanib, johiliyat va islom davridagi e'tiqodlar hamda mazhablar tavsifiga taqalgan edi. Shuningdek, Payg'ambar (a.s.)ning: «Mendan so'ng ummatim yetmish uch firqaga bo'linur, bittasidan tashqari barchasi do'xaddadir», degan xabarlaridagi yetmish uch firqa kimlardan iborat ekanligi, ularning har birining nomi va qarashlari ma'lum bo'lishi lozim edi. Toki, zalolatdagi toifa kim ekanligi aniqlansin va ularning gunohlari aniq bo'lsin. Natijada sunniy firqa Alloh taoloning ularga bergan ne'matining qadrini bilsin” (Abul-Maoliy, 1312/1934., pp. 16-17).

G'aznaviylarning sunniy ekanliklari ma'lum haqiqat bo'lgani bois, sulton majlisida hozir bo'lgan Abul Maoliy ham sunniy bo'lishi lozim. Shuningdek, yuqoridagi matnda keltirilgan: «Sunniiy firqa Alloh taoloning ularga bergan ne'matining qadrini bilsin», degan iqtibos ham uning sunniyligiga dalolat qiladi.

“Bayonul adyon” asarini zamonaviy tahqiq qilgan va nashr qilgan Abbos Iqbolga ko'ra, mazhablar va dinlar tarixi bo'yicha fors tilida yozilgan eng qadimgi asar – «Bayonu-l-adyon» bo'lib, forsiy nasrning tuzilishi jihatidan eng go'zal va eng qadimiy namunalaridan biri hisoblanadi (Abul-Maoliy, 1312/1934., p. 5).

Abul Maoliy mazkur asarni hijriy 485-yilda tasnif etganini alohida ta'kidlab o'tgan. Yuqorida qayd etilganidek, u ushbu asarni yozish jarayonida muayyan manbalardan ham foydalangan. Odatda, muallif o'zi yoritayotgan mavzuni qaysi manbadan olgan bo'lsa, o'sha kitobning nomini keltirib o'tgan. Muallif o'z asarida foydalangan va nomini zikr etgan manbalar quyidagilardir:

1. «Al-Bad va-t-tarix». Muallif Abu Zayd Ahmad ibn Sahl Mutahhar ibn Tohir Maqdisiy (vaf. 997). Maqdisiy mazkur asarni hijriy 966-yilda tasnif etgan. Abul Maoliy «Ajam va forslar» haqida so'z yuritilgan birinchi bobda Zardusht va Fors o'lkasidagi otashkadalar bayon etilgan qismni mazkur asardan iqtibos qilgan. Shuningdek, «Falsafachilar» sarlavhasi ostida Aristotelning Iskandarga yozgan maktubini ham Maqdisiyning kitobidan o'qiganini qayd etgan. Hindlar haqida so'z yuritilgan o'rinda ham yana Maqdisiy asariga havola beradi.

2. “Al-Amad ‘ala-labad”. Muallif Abul Hasan Muhammad ibn Yusuf Amiriy Nishopuriy (vaf. 992). Abul Maoliy ushbu asarning nomini «Abadun ala-l-amad» shaklida keltirgan. Ahmad Kasraviy Kotib Chalabiyning «Kashfu-z-zunun» asariga tayanib, ushbu xatolikni tuzatgan. Abul Maoliy Jolinusning hakim va faylasuf emas, balki shifokor bo'lganligi haqidagi ma'lumotni aynan shu asardan olgan.

3. “Siyratul faylasuf”. Muallif Abul Xayr Hasan ibn Suvvar Hammor (vaf. 1030). Aslida muallif bu yerda «Abul Xayr Hammorning bir kitobida» degan ifodani qo'llash orqali Aflotunning «Estetika» asarida keltirilgan bir ma'lumot haqida so'z yuritadi. Abbos Iqbol mazkur nashr yakuniga ilova qilingan «Izoh va hoshiyalar»da Abul Xayrning nasroniy bo'lgani hamda o'z davrining mashhur mantiqshunos faylasuflaridan biri ekanligini, suryoniy tilidan arab tiliga tarjimalar qilganini ta'kidlaydi. Shuningdek, Sulton Mahmud G'aznaviy Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy va Abu Nasr Iroq bilan birgalikda uni ham Xorazmdan G'aznaga olib ketganini qayd etadi. Sulton Mahmudning yuksak hurmatiga sazovor bo'lgan Abul Xayr – o'sha paytlarda yuz yoshdan oshgan edi – umrining oxirigacha G'aznada istiqomat qilgan. Abbos Iqbolning fikricha, Abul Maoliy Abul Xayrning ehtimol «Siyratul faylasuf» nomli asaridan foydalangan.

4. Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asari (Mukhamedov N., & Turambetov N., 2023, pp.105-110). Hindlar haqida so'z yuritilgan kitoblardagi savol-javob faslini Beruniyning mazkur asaridan olgan.

5. “Kitobul Maqolot”. Muallif Abu Iso Muhammad ibn Horun Varroq Bag'dodiy (vaf. 861).

Muallif asarni besh bobga ajratganini ta'kidlab, ushbu boblarning mazmunini quyidagicha tartiblagan:

Birinchi bob: Barcha zamonlar va hududlarda Yaratuvchining borligini e'tirof etuvchilar haqida.

Ikkinchi bob: Islomdan oldingi e'tiqodlar va oqimlar xususida.

Uchinchi bob: Ummatning 73 firqaga bo'linishi haqidagi rivoyatning mazmun-mohiyati va tahlili.

To'rtinchi bob: Islomdan ajralib chiqqan firqalar va ularning qarashlarining tizimli hamda batafsil bayoni.

Beshinchi bob: G'ayriilmiy tasavvurlar ketidan ergashgan istisnoiy guruhlar: bir lohlik va payg'ambarlik da'vosi bilan chiqqanlar.

Ushbu fasllar qisqacha tahlil qilinadigan bo'lsa, muallif birinchi bobda musulmon geograflarining dunyoni iqlimlarga ajratishga asoslangan klassik tasnifiga tayanib, dunyoda mavjud bo'lgan xalqlar haqida to'xtalib o'tgan. Bular: ajamlar-forslar, dariy forslari (afg'onlar), faylasuflar, rumliklar, qibtiylar, habashlar, turklar, hindlar va zanjilardir. Mazkur tasnif, o'z navbatida, XI asrda yashagan muallif timsolida o'sha davr musulmonlarining insoniyatni geografik jihatdan qanday tabaqalaganliklarini ko'rsatib berish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Besh sahifadan iborat ushbu birinchi bo'limda Abul Maoliy barcha davrlar va mintaqalarda insoniyat ongi va qalbida "Yuksak Yaratuvchi" g'oyasi mavjudligini isbotlash maqsadida o'zi bilgan xalqlar haqida ma'lumot bergan. Muallif arablar va ajamlar haqida so'z yuritarkan, zardo'shtiylarning "Zand", "Pazand" va "Avesto" kitoblarining muqaddimasida: "Oxiratning borligiga shubha qilma! Alloh taolo va farishtalarning mavjudligiga shubha qilma!" deb yozilganini qayd etadi (Abul-Maoliy, 1312/1934., pp. 20-21). Shuningdek, dariy forslari Yaratuvchini "Xudo" nomi bilan e'tirof etishlarini, faylasuflar esa Allohni "xayri avval" (birlamchi xayr), "vohibul aql" (aql beruvchi), "Xirad" (aql) va "boriy" (yaratuvchi) deb atashlarini ta'kidlaydi (Abul-Maoliy, 1312/1934., pp. 22-23).

Rumlar, qibtiylar va habashlar haqidagi qisqa faslda muallif ularning aksariyati nasroniy suryoniylik ekanini, yahudiylar kabi Allohga imon keltirishlarini hamda Ulotloqqa nisbatan qo'llaydigan nomlarini keltirish orqali bayon qiladi (Abul-Maoliy, 1312/1934., pp. 22-23). So'ngra, turklarga oid mustaqil fasl ochib, ular Alloh taologa nisbatan "Tangri", "Bir Tangri" va "Ko'k Tangri" istilohlarini qo'llashlarini, shuningdek, eshitishicha, Uni "Ulug'boyat", ya'ni barcha ulug'larning eng ulug'i sifatida ta'riflashlarini ta'kidlaydi. Hindlar va zanjilar (habashlar/qora tanlilar) haqidagi so'nggi bo'limda, hatto, odamlar orasida eng vahshiy sanalgan va madaniy o'yin-kulgulardan yiroq bo'lgan zanjilar ham Yaratuvchining borligiga ishonishlarini qayd etish bilan mazkur faslni yakunlaydi (Abul-Maoliy, 1312/1934., pp. 23-24).

Insonlarning islomdan avvalgi e'tiqodiy qarashlarini yorituvchi ikkinchi bo'limda, muallif birinchi bobda tilga olingan xalqlarning diniy mansubligi haqida ma'lumot beradi. Shu o'rinda u Qur'oni karimdagidagi dalillarga tayangan holda, arablar orasida butparastlar hamda oxirat kunini inkor etuvchi dahriylar (materialistlar) mavjud bo'lganini bayon qiladi.

Muallif faylasuflardan Suqrot, Aflotun va Aristotelning yagona Xudo tushunchasiga (tavhidga)

ega bo'lganliklarini ta'kidlaydi (Abul-Maoliy, 1312/1934., p. 28). Yahudiy firqalari haqida so'z yuritarkan, ularning Muso va Horun alayhissalomlarga ega bo'lgan payg'ambarlarni e'tirof etishlari, biroq Iso va Muhammad alayhissalomlarni qabul qilmasliklarini, Tavrot va Zabur bilan birgalikda jami 19 ta muqaddas kitobga ishonishlarini qayd etadi. Yahudiy toifalaridan biri bo'lgan somiriylar Tavrot hamda Muso, Horun va Yusha ibn Nun alayhissalomlardan boshqa hech bir payg'ambarni tan olmasliklarini aytib o'tadi. Shuningdek, u yahudiy firqalari sifatida Dovud alayhissalom avlodidan bo'lgan Dovud Inoniyga ergashgan inoniylar hamda "Raiyya" deb nomlangan guruh haqida ma'lumot beradi. Yahudiylar rahbarining unvoni "Ra'sul-Jolut" ekanini, ularning ruhoniylari esa "rohib, ahbor, qissis" deb atalishini bayon qiladi.

Abul Maoliy yahudiylardagi "Tavrot samonin" (Saksonlar Tavroti) tushunchasi haqida to'xtalib o'tgan. Unga ko'ra, yahudiy podshohlaridan biri o'z davrining ahbor (olimlar) va ruhoniylaridan 80 kishini to'plab, Tavrotni tarjima qilishni buyurgan. Podshoh ularning har biri uchun alohida joy tayyorlab bergan va tarjima jarayoni bir-biridan mustaqil ravishda amalga oshirilgan. Tarjima ishlari yakunlangach, barcha matnlarda hech qanday tafovut yo'qligi aniqlangan. Muallifning qayd etishicha, aynan shu sababli yahudiylar ushbu matnni "Saksonlar Tavroti" deb ataydilar (Берунок, 2013, p. 973); (Beruniy., 2022, pp. 57-58)².

Abul Maoliy nasroniylar Yaratuvchini yagona mohiyat (uqnum) deb qabul qilgan holda, "ota, o'g'il va muqaddas ruh"dan iborat uch uqnumga ishonishlarini bayon qiladi. Muallif nasroniylarni uch asosiy guruhga ajratadi: ya'qubiylar, nasturiylar va malkoiylar (melkitlar) (Abul-Maoliy, 1312/1934., pp. 30-31).

So'ngra muallif tartib bilan majusiylilik, zardo'shtiylik, mazdakiylilik, moniylik, sanaviylilik (dualizm), butparastlik, hind dinlari, tanosux (reinkarnatsiya), sobiylar, qarmatiylar, zindiqlar va sofistoiylilik haqida ma'lumot beradi.

Ko'rinib turibdiki, muallif ushbu bo'limda tilga olgan dinlar va e'tiqodlar haqidagi ma'lumotlarni yo muayyan bir manbaga tayangan holda, yoxud o'zining shaxsiy kuzatuv va eshitganlari asosida bayon qilgan. Xususan, yahudiylilik va nasroniylilik haqidagi ma'lumotlarida muallif faqat o'sha davrda islom olamida yashagan g'ayrimuslimlar bilan bog'liq tajribaviy bilimlarni yetkazayotgani yaqqol seziladi.

Kitobning uchinchi bo'limi mashhur "73 firqa" hadisi bilan boshlanadi. 73 firqaning kimlardan iborat

² Aslini olganda Abul Maoliy "Saksonlar Tavroti" deb atagan kitob "Septuaginta" bo'lib, u "Yetmishlar Tavroti" deb tarjima qilinadi. Septuaginta – Qadimgi Ahdning nasroniy dinigacha yunon tiliga Iskandariyada qilingan eng boshlang'ich va yagona tarjimasidir. U Septuaginta yoki "Yetmishlar tarjimasi" (LLX) deb ataladi.

ekanligi borasida muallif asosiy oqimlar 8 ta ekanini qayd etadi. Bular: ahli sunna val jamoa, mo'taziliylar, shialar, xavoriylar, jabriylar, mushabbiha va karromiylar, so'fiylar hamda murjialar (Abul-Maoliy, 1312/1934., p. 42). Bu yerda qiziqarli jihat shundaki, muallif an'anaviy tasnif doirasidan chiqib, tasavvufni ("so'fiylik"ni) ham asosiy firqalardan biri sifatida sanab o'tgan.

Avvalgi uchinchi bo'limda tasnif etilgan islom firqalari haqida batafsil ma'lumot beruvchi ushbu to'rtinchi bo'limda muallif o'sha tartibga muvofiq, dastlab ahli sunna val jamoa mazhabiga to'xtalib o'tadi. Abul Maoliy ahli sunna musulmonlarning "mo'tadil yo'li" (vasatiylik) va najot topuvchi firqasi ekanini ta'kidlar ekan, ularning usul bo'yicha umumiy yondashuvlarini bayon qiladi. So'ngra ushbu mazhabning ichki tarmoqlari sifatida zikr qilingan guruhlar o'rtasida furu' (amaliy-fiqhiy) masalalarda ixtiloflar mavjudligini qayd etadi. Shuningdek, u usulga oid mavzularda imonning ta'rifi hamda uning ko'payib-kamayishi kabi masalalarda ham o'zaro farqli qarashlar borligini ko'rsatib o'tadi (Abul-Maoliy, 1312/1934., pp. 45-47).

"Bayonul adyon" asarining eng salmoqli hisoblangan so'nggi beshinchi bo'limida muallif ilohlik va payg'ambarlik da'vosi bilan chiqqan shaxslar hamda guruhlar haqida so'z yuritadi. U tilga olgan birinchi shaxs payg'ambarlik da'vosida bo'lgan Musaylimatul Kazzobdir. Muallif uning "mo'jiza" niqobi ostida odamlarga ko'rsatgan hiyla-nayranglari haqida to'xtalib, u tomonidan uydirilgan (soxta) suradan misol keltiradi³ (Abul-Maoliy, 1312/1934., p. 68).

Muallif Musaylima kazzobdan tashqari, yana Payg'ambar (s.a.v.) davrida payg'ambarlik da'vosida bo'lgan Tulayha ibn Xuvaylid Asadiy hamda Asvad Yamaniy haqida to'xtalib o'tgach, Hazrat Umar davrida da'vo bilan chiqqan Axtal Dab'iy xususida qisqacha ma'lumot beradi. So'ngra Muxtor ibn Abu Ubayd Saqafiy tomonidan yuzaga kelgan harakatni tahlil qiladi. Muallif Muxtorning e'tiqodiy o'ziga xosligi to'liq aniqlanmaganini, biroq Husayn (r.a.)ning qotillarini yo'q qilish aynan unga nasib etganini ta'kidlaydi.

³ "Bayonul adyon"da muallif quyidagilarni keltiradi: "Kunlarning birida a'yonlaridan biri Musaylimadan Muhammad (s.a.v.)ga nozil qilingan "Kavsar" surasini bilish-bilmasligini so'raganda, u surani to'liq o'qib beradi. So'ngra go'yo o'ziga vahiy kelayotganidek holatga kirib: "Hozirgina menga ushbu suraning "birodari" (o'xshashi) nozil bo'ldi", – deya quyidagi jummalarni o'qiydi: "Inna a'taynaka-l-hamahir, fa-salli li-Rabbika va hajir, inna shaniaka-l-kafir" (Mazmuni: "Senga hamohirni berdik, Robbing uchun namoz o'qi va hijrat qil, albatta, seni yomon ko'ruvchining o'zi kofirdir"). Shunda haligi kishi: "Hamohir nima?" – deb so'raydi. Musaylima esa: "Kavsar nima?" – deya savol bilan javob beradi. Haligi kishi: "Kavsar – jannatdagi bir nahrdir", – deydi. Shundan so'ng Musaylima: "Hamohir – Kavsar suvi chiqadigan manbadir", – deb iddao qiladi".

So'ngra muallif Bayon ibn Sam'on, Abdulloh ibn Harb ibn Amr, Mug'ira ibn Said, Abu Mansur Kisf, Xayru-r-Roiy, Abu Iso Isfahoniy, Muqanna, Bobek Xurramdin, Ali ibn Muhammad Mubaraqaiy, Husayn ibn Mansur Halloj, Muhammad ibn Muhammad Eronshahriy va Ahmad Kayyol kabi ilohlik yoki payg'ambarlik da'vosida bo'lgan yohud Bobek va Muqanna kabi xususan, Abbosiylar xalifaligiga jiddiy siyosiy muammolar tug'dirgan shaxslar haqida to'xtalib o'tgan. Kitobning davomida alohida fasl sarlavhasi ostida, aynan Abbosiylar davrida maydonga chiqqan 9 nafar shaxs bilan bog'liq rivoyat va ma'lumotlarga o'rin berilgan. Shuningdek, so'nggi faslda ruhiy holati joyida bo'lmagan, biri o'zini Xudo, ikkinchisi esa payg'ambar deb hisoblagan ikki shaxsning kulgili holatlari bayon qilingan.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, G'aznaviylar davrida Xuroson hududida yashab o'tgan Abul Maoliy Muhammad ibn Ubaydulloh sunniy mazhabiga mansub olimdir. Uning "Bayonul adyon" asari dinlar va mazhablar tarixi haqida fors tilida yozilgan ilk ma'lum asar hisoblanadi.

Muallif ushbu asarida xolis yondashuvni qo'llagan, xususan, islomdagi firqalar haqida so'z yuritganda, "g'ulot" deb hisoblagan bir-ikki oqimni istisno qilganda, qolganlariga nisbatan betaraf uslub qo'llagan. U ahli sunna va shia-isnoashariya mazhablari xususida batafsil ma'lumotlar berib o'tgan.

Muhimi, «Bayonul adyon» asarida nafaqat diniy ta'limotlar, balki XI asr musulmon dunyosining geografik va antropologik tasavvurlarini ham o'zida aks ettirani aniqlandi. Muallifning turli xalqlar, jumladan, islomdan avvalgi turklar va hindlarning iloh haqidagi tasavvurlari borasidagi qiyosiy kuzatuvlari va ma'lumotlari tadqiq qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. ابوالمعالی. (1312/1934). بیان الادیون در شرح ادیون و مداحب. جاهلی و اسلامی. تهران: انتشارات ابن سینا.
2. المعجم الواسطي. (2004). القاهرة: مكتبة الشروق الدولية.
3. ابن كثير. (1999). مختصر تفسير ابن كثير. بيروت: دار المعرفة.
4. الشهريستوني. (1968). الميلال فان نيهال. قهيرة: مؤسسة لين النصر. و تقازي.
5. فخر الدين روزي. (1981). مفوح العيب. بيروت: دار الفكر.
6. Beruniy, A. R. (1968). Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent: Fan.
7. Başaran, T. (2011). Thermal Analysis of the Domed Vernacular Houses of Harran, Turkey. Sage Journal, 20(5), 543–554.

8. Bosworth, C. (15 December 2003 y.). Harran. Encyclopaedia Iranica, pp. 13–14.
9. Buckley, J. J. (2002). The Mandaean: ancient texts and modern people. Oxford: Oxford University Press.
10. Вевюрко. (2013). Септуагинта: древнегреческий текст Ветхого Завета в истории религиозной мысли. Москва: Издательство Московского университета.
11. Gündüz, Ş. (2016). Sâbiiler: Son Gnostikler. Istanbul: Vadi Yayınları.
12. Häberl, C. (2021). “Mandaic and the Palestinian Question”. Journal of the American Oriental Society, 171–184.
13. Hazm, I. (2011). Al-Fisol. Istanbul: Bilnet matbaacilik.
14. Humeyniy., R. M. (1365). Risola-i tavzihil masoil. . Tehron: Intishoroti jabxonai vizaroti irshodi islomiy.
15. Kutlu., S. (2008). Mezhepler Tarihine Giriş. . Istanbul: Dem Yayınları
16. Masse., H. (1986). Abu'l-Ma'âli Muhammad b. 'Ubayd Allâh, EI2. (T. I). Leiden: E.J.Brill
17. Mukhamedov, N., & Turambetov, N. METHODOLOGIES EMPLOYED BY AL BERUNI IN THE ANALYSIS OF RELIGIOUS SYSTEMS // Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 12, Issue 12, December 2023 SJIF 2022 = 8.179 -P.105-110.
18. Nasoraia, B. S. (2012). Sacred Text and Esoteric Praxis in Sabian Mandaean Religion. DİNÎ VE FELSEFÎ METİNLER: YİRMİBİRİNCİ YÜZYILDA YENİDEN OKUMA, ANLAMA VE ALGILAMA (ср. 27-53). Sultanbeyli: Kültür Yayın.
19. Norberg, M. (1816). Codex Nasaraeus Liber Adami appellatus. Lund: Lund.
20. S.Lloyd, W.Brice. (25 December 2013 г.). Harran. Anatolina Studies (1), 77 - 111.
21. Sinclair, T. (1990). Eastern Turkey: An Architectural & Archaeological Survey, Volume IV. New York: Pindar Press.
22. Yusuf, S. M. (2008). Tafsiri Hilol. Toshkent: Hilol-nashr.
9. Buckley, J. J. (2002). The Mandaean: ancient texts and modern people. Oxford: Oxford University Press.
10. Gündüz, Ş. (2016). Sâbiiler: Son Gnostikler. Istanbul: Vadi Yayınları.
11. Häberl, C. (2021). «Mandaic and the Palestinian Question». Journal of the American Oriental Society, 171–184.
12. Hazm, I. (2011). Al-Fisol. Istanbul: Bilnet matbaacilik.
13. Kasir, I. (1999). Muxtasar tafsir Ibn Kasir. Bayrut: Dor al-ma'rifat.
14. Masse., H. (1986). Abu'l-Ma'âli Muhammad b. 'Ubayd Allâh, EI2. (T. I). Leiden: E.J.Brill
15. Mukhamedov, N., & Turambetov, N. METHODOLOGIES EMPLOYED BY AL BERUNI IN THE ANALYSIS OF RELIGIOUS SYSTEMS // Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 12, Issue 12, December 2023 SJIF 2022 = 8.179 -P.105-110.
16. Nasoraia, B. S. (2012). Sacred Text and Esoteric Praxis in Sabian Mandaean Religion. DİNÎ VE FELSEFÎ METİNLER: YİRMİBİRİNCİ YÜZYILDA YENİDEN OKUMA, ANLAMA VE ALGILAMA (ср. 27-53). Sultanbeyli: Kültür Yayın.
17. Norberg, M. (1816). Codex Nasaraeus Liber Adami appellatus. Lund: Lund.
18. Roziy, F. (1981). Mafotih al-g'ayb. Bayrut: Dor al-fikr.
19. S.Lloyd, W.Brice. (25 December 2013 г.). Harran. Anatolina Studies(1), 77 - 111.
20. Shahrstoniy. (1968). Al-Milal va-n-nihal. Qohira: Muassasa lin-nasr va-t-tavazi'.
21. Sinclair, T. (1990). Eastern Turkey: An Architectural & Archaeological Survey, Volume IV. New York: Pindar Press.
22. Yusuf, S. M. (2008). Tafsiri Hilol. Toshkent: Hilol-nashr.

REFERENCE

1. Abul-Maoliy. (1312/1934.). Bayonul adyon dar sharh-i adyon ve Mazahib-i johiliy va islomiy. Tehron: Intishorot-i Ibn Sino.
2. Humeyniy., R. M. (1365). Risola-i tavzihil masoil. . Tehron: Intishoroti jabxonai vizaroti irshodi islomiy.
3. Kutlu., S. (2008). Mezhepler Tarihine Giriş. . Istanbul: Dem Yayınları.
4. Vevyurko. (2013). Septuaginta: drevnegrecheskiy tekst Vexogo Zaveta v istorii religioznoy misli. Moskva: Izdatelstvo Moskovskogo universiteta.
5. Al-Mo'jam al-vasiyt. (2004). Qohira: Maktaba ash-shuruq ad-duvaliyya.
6. Başaran, T. (2011). Thermal Analysis of the Domed Vernacular Houses of Harran, Turkey. Sage Journal, 20(5), 543–554.
7. Beruniy, A. R. (1968). Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent: Fan.
8. Bosworth, C. (15 December 2003 y.). Harran. Encyclopaedia Iranica, pp. 13–14.